


## NAVOIY VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLİSH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Navoiy viloyatida bugungi kunda ko'plab madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, bu maskanlar qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni o'rganishga sayoxlar uchun qiziqarli mavzudur. Viloyatda yildan-yilga turistlar tashrifi ko'payib borayotganligi ham xududimizda turizm salohiyati tobora yuksalayotganligidan dalolat beradi.

### Turistik faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlar va ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni (2016-2018 yillar)

- xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, ming kishi
- ulardan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik
- turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni, birlik



2018 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 6 tani tashkil qilgan, 2017 yilga nisbatan 2 taga ko`p. Ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 2017 yilda 6,1 ming nafarni tashkil qilgan bo`lsa, 2018 yilda 10,3 ming nafarga etgan.

## 2018 yilda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni


	Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, <i>kishi</i>	Bir kunlik tashrif buyuruvchilar (ekskursantlar)	Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar	Kishi-kun (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar uchun)
<b>Jami</b>	<b>10262</b>	<b>7271</b>	<b>2991</b>	<b>3372</b>
<b>Qabul qilindi</b>	6964	4009	2955	3300
shu jumladan:				
Xorijiy tashrif buyuruvchilar	6593	3708	2885	3090
ulardan MDH mamlakatlariidan	119	105	14	14
O`zbekiston Respublikasi fuqarolari	371	301	70	210
<b>Junatildi</b>	<b>3298</b>	<b>3262</b>	<b>36</b>	<b>72</b>
O`zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha	3298	3262	36	72

## 2018 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarning soni va qiymati

	Soni, <i>birlik</i>	Qiymati, ming.so'm
<b>Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari - jami</b>	<b>3261</b>	<b>309536,0</b>
Ulardan bevosita aholiga	3261	309536,0
shu jumladan:		
O`zbekiston hududi bo'yicha O`zbekiston fuqarolariga	3241	306536,0
Chet el mamlakatlari bo'yicha O`zbekiston fuqarolariga	-	-
ulardan MDH mamlakatlari bo'yicha	-	-
O`zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga	10	1500,0
O`zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	10	1500,0

2018 yilda turistik firmalar orqali 3261 dona, qiymati 309536,0 ming so'mlik sayyohlik yo'llanmalar sotilgan. Jumladan O`zbekiston hududi bo'yicha O`zbekiston fuqarolariga 3241 dona (99,4 foiz) yo'llanma sotilgan.

## **2018 yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni, *birlik***



**1**

**27**

**Mehmonxona va shunga  
o'xshash joylashtirish vositalari**



**2**

**11**

**Ixtisoslashtirilgan joylashtirish  
vositalari**



**3**

**6**

**Individual joylashtirish vositalari**

Jamoaviy joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari – 27 ta, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari – 11 ta, individual joylashtirish vositalari – 6 ta.

## **Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari**




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxonalar va qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar. 2018 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida xonalar soni 708 tani, ularda joylar soni 1259 tani tashkil etgan. Joylashtirilgan shahslar soni 53054 kishini, shundan 86,4 % O'zbekiston fuqarolari, 4,6 % MDH mamlakatlari fuqarolari, qolgan 9,0 % xorijiy davlatlardan fuqarolardir. Jami tunab qolishlar soni 162559 kunni tashkil etgan.

## Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari, birlik



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: dam olish zonasi – 1 ta, katta yoshlilar uchun sanatoriya – 2 ta, bolalar uchun sanatoriya – 1 ta, sanatoriya-profilaktoriya – 4 ta, turistik baza – 3 ta. Xonalar soni 547 tani, ularda joylar soni 1143 tani, joylashtirilgan shaxslar soni 18256 kishini tashkil etdi. Jami tunab qolishlar soni 188335 kunni tashkil etgan.


## Individual joylashtirish vositalari



Individual joylashtirish vositalariga quyidagilar kirdi: mehmon uylari – 5 ta, o'tov lagerlari – 1 ta. Ularda xonalar soni 29 tani, o'rinxalar soni esa 140 tani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar soni 3341 kishini tashkil etgan. Mehmonxona uylariga joylashtirilgan shaxslar – 20,4 %, o'tov lagerlariga – 79,6 % to'g'ri keladi. Jami tunab qolishlar soni 3821 kunni tashkil etgan.




### Mehmonxonalarning toifasi (yulduzi)




Mehmonxonalar toifa bo'yicha 1-yulduzli, 2-yulduzli, 3-yulduzli, 4-yulduzli, 5-yulduzli va toifasizlarga bo'linadi. Navoiy viloyatida toifasiz mehmonxonalar – 76 %ni, 3-yulduzli va 4-yulduzli mehmonxonalar esa 12 %ni tashkil etgan.

**2018 yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida 53054 kishi joylashtirilgan. Ulardan ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha joylashtirilganlar–80,9 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish–7,4 %, ta'til va dam olish maqsadida–3,8 %, boshqa maqsadlar–2,2 %, ziyorat qilish–2,0 %, tranzit–1,8 %, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik–1,3 %, davolovchi va sog'lomlashiruvchi–0,3 %, do'konlarga tashriflar–0,3 % tashkil etgan.

**2018 yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish  
vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rindaniki, 1-3 kun tunash 84,3 %ni tashkil yetgan, 4-7 kun tunash esa 10,1 %ni, 8-28 kun tunash 4,2% ni, 29-91 kun tunash 1,1 %ni, 92-182 kun tunash 0,2 %ni, 183-365 kun tunash esa 0,1 %ni tashkil etgan.

**2018 yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida safar maqsadlari bo'yicha  
joylashtirilgan shaxslar sonining taqsimoti, kishi**

	Jami	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar
<b>Joylashtirilgan shaxslar, jami</b>	<b>18256</b>	<b>6714</b>	<b>11542</b>
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>			
<b>O'zbekistondan</b>	<b>14528</b>	<b>2986</b>	<b>11542</b>
<b>MDH mamlakatlaridan</b>	<b>109</b>	<b>109</b>	
<b>Xorijiy davlatlardan</b>	<b>3619</b>	<b>3619</b>	<b>-</b>

2018 yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida 18256 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'icha –63,2 %, davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalarni olish maqsadi bo'yicha –36,8 %ni tashkil etgan.

**2018 yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish  
vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rindaniki, 1-3 kun tunash 20,8 %ni tashkil etgan, 4-7 kun tunash 20,9 %ni, 8-28 kun tunash 53,7% ni, 29-91 kun tunash esa 4,6 %ni tashkil etgan.

**2018 yilda individual joylashtirish vositalarida safar maqsadlari bo'yicha  
joylashtirilgan shaxslar sonining taqsimoti, kishi**

	Jami	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar
<b>Joylashtirilgan shaxslar, jami</b>	<b>3341</b>	<b>3219</b>	<b>122</b>
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>			
<b>O'zbekistondan</b>	<b>461</b>	<b>339</b>	<b>122</b>
<b>MDH mamlakatlaridan</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	
<b>Xorijiy davlatlardan</b>	<b>2780</b>	<b>2780</b>	<b>-</b>

Individual joylashtirish vositalarida 3341 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 96,3 %, davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalarni olish maqsadi bo'yicha – 3,7 %.

**2018 yilda turish muddati bo'yicha individual joylashtirish vositalarida shaxslarning  
taqsimlanishi, kishi**

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	29 – 91 kun tunash
<b>Joylashtirilgan shaxslar, jami</b>	<b>3341</b>	<b>3331</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>10</b>
<i>shu jumladan fuqarolar:</i>					
<b>O'zbekistondan</b>	<b>461</b>	<b>451</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>10</b>
<b>MDH mamlakatlaridan</b>	<b>100</b>	<b>100</b>			
<b>Xorijiy davlatlardan</b>	<b>2780</b>	<b>2780</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>

Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 99,7 % kishi 1-3 kun tunagan, 0,3 % kishi 29-91 kun tunagan.

**2018 yida xodimlar soni, kishi**  
*(o'rindoshlarsiz)*

	Jami	Ulardan:			
		turistik firma va tashkilotlarda	mehmonxona va shunga o'xhash joylashtirish vositalarida	ixtisoslashtiril- gan joylashtirish vositalarida	individual joylashtirish vositalarida
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>875</b>	<b>16</b>	<b>357</b>	<b>490</b>	<b>12</b>

2018 yilda xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) turistik firma va tashkilotlarda 16 kishini, mehmonxona va shunga o'xhash joylashtirish vositalarida – 357 kishini, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida – 490 kishini, individual joylashtirish vositalarida – 12 kishini tashkil qilgan.

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*